TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD03/2025.27.12.Fil.12.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAEVA LARISA ERKIN QIZI

O‘ZBEK VA INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDA FANTASTIK ASARLAR TIPOLOGIYASI (X.To‘xtaboyev “Sariq devni minib” va J.Rouling “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

UO‘K: 821.512.133.09-93-312.
9+821.111.09-93-312.9

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Xayrullayeva Larisa Erkin qizi
O‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik asarlar tipologiyasi (X.To‘xtaboyev “Sariq devni minib” va J.Rouling “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlari misolida).....3

Хайруллаева Лариса Эркин кизи
Типология фантастических произведений в узбекской и английской детской литературе (на примере произведений Х.Тухтабаева «Верхом на жёлтом диве» и Дж.Роулинг «Гарри Поттер и философский камень»)…….....23

Khayrullaeva Larisa Erkin kizi
Typology of fantastic works in Uzbek and English children’s literature
(Based on works Kh. Tukhtaboev’s “Riding the Yellow Div” and J.K. Rowling‘s “Harry Potter and the Philosopher’s Stone”)..…….…… ……..…..45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……...……...49

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD03/2025.27.12.Fil.12.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAYRULLAEVA LARISA ERKIN QIZI

O‘ZBEK VA INGLIZ BOLALAR ADABIYOTIDA FANTASTIK ASARLAR TIPOLOGIYASI (X.To‘xtaboyev “Sariq devni minib” va J.Rouling “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2026.3.PhD/Fil6881 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Termiz davlat universiteti veb-sahifasida (www.terdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qodirova Nasima Saidburxonovna,** filologiya fanlari doktori(DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Kasimova Zamira Abdullayevna** filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
	To'laboyeva Ruxsora Sayfullayevna filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD03/2025.27.12.Fil.12.04 raqamli ilmiy kengashning 2026 – yil "23" 11 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99 876)221-74-55; faks: (99 876) 221-71-71).;

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (442 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.. Tel.: (99 876)221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "11" 11 da tarqatildi.

(2026-yil "11" 11 dagi 18 – raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.T.Mahmaraimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.B.Umurqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

N.T.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida milliy adabiyotlarni qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish, badiiy tafakkurning universalligi va milliy o‘ziga xosligini aniqlash ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, bolalar adabiyoti shaxsning estetik didi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim madaniy hodisa sifatida e’tirof etilar ekan, uning tarkibidagi fantastik asarlarni qiyosiy tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu ma’noda, o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotidagi fantastik asarlarning tipologik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish milliy adabiyotshunoslik bilan bir qatorda qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar fantastikasining poetikasi va tipologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar izchil olib borilmoqda. Fantastik tafakkur, qahramon konsepsiyasi hamda milliy va umuminsoniy poetik tamoyillarni tadqiq etish qiyosiy adabiyotshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa turli xalqlar bolalar adabiyotidagi fantastik asarlarning poetik qonuniyatlari va milliy o‘ziga xosligini chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Keyingi yillarda milliy adabiyotni jahon adabiy jarayoni kontekstida o‘rganish, qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotlarni kengaytirish hamda yosh avlodning ma’naviy-intellektual kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi badiiy merosni ilmiy asosda tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada o‘zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan tipologik aloqalarini ochib berish, milliy adabiyotning xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish muhim vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zero, “Qaysi millatning adabiyoti boy, musiqasi yurakka yaqin, teatri hayotiy, kinosi ta’sirchan, san’ati jozibador bo‘lsa, o‘sha xalqning ovozi dunyoda baland eshitiladi” [1]. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotidagi fantastik asarlarni qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etish, ulardagi badiiy tafakkur, obrazlar tizimi hamda milliy va umuminsoniy poetik tamoyillarning o‘ziga xosligini aniqlash bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik asarlar bolalar tafakkurini shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni badiiy talqin etishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, X.To‘xtaboyev va J.Rouling asarlarida fantastik syujet, mifologik hamda ramziy obrazlar vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy uyg‘unligi yaratilgan. Mazkur asarlar nafaqat o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotining yuksak namunalari, balki jahon bolalar fantastikasi taraqqiyotining muhim bosqichlarini ham ifodalaydi. X.To‘xtaboyev va J.Rouling ijodidagi fantastik asarlarning tipologik xususiyatlari, obrazlar tizimi, mifopoetik qatlam va qahramon konsepsiyasini qiyosiy o‘rganish zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

---

[1]Prezident matbuot xizmati. Prezident madaniyat, san’at va adabiyot sohalari xodimlariga mukofotlar topshirdi. – 2026. – 1 iyun. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/06/01/president/(murojaat sanasi: 04.09.2026).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 19-yanvardagi 34-sonli “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligida fantastika, bolalar fantastik adabiyoti hamda X.To‘xtaboyev va J.Rouling ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni muammoning qo‘yilishi va ilmiy-nazariy yo‘nalishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish fantastikaning nazariy-estetik tabiati, genezisi va janriy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar. Mazkur yo‘nalishda fantastikaning adabiy hodisa sifatidagi tabiati, uning real voqelik va badiiy xayol bilan munosabati, ilmiy fantastika va fentezining janriy chegaralari, fantastik tafakkur va fantastik shartlilik masalalari tadqiq etilgan. O‘zbek adabiyotshunosligida R.Ibrohimova[2] fantastikaning o‘zbek adabiyotidagi janriy xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, P.Shermuhammedov[3] fantastik tasvir va zamon qahramoni masalalariga e’tibor qaratgan. Xorijiy adabiyotshunoslikda T.Todorov[4] va M.Eliadelar[5] fantastikani real va g‘ayritabiiy hodisalar chegarasida yuzaga keluvchi estetik hodisa sifatida nazariy jihatdan asoslashga intilgan; F. Mendleson[6] bolalar fantastikasining shakllanishi va rivojlanish tamoyillarini, Y.S.Polyanskaya[7] fantastik matnning ko‘pqatlamli tabiatini,

[2] Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе: Монография. – Ташкент: Фан, 1987. – 96 с.

[3] Шермуҳаммедов П. Давр қаҳрамон тақдирида (Адабий-танқидий мақолалар). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 276 б.

[4] Todorov T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre / Trans. from French by R. Howard. – Cleveland; London: The Press of Case Western Reserve University, 1973. – 180 p.

[5] Eliade M. Myth and Reality. – New York: Harper & Row, 1963. – 231 p.

[6] Levy M., Mendlesohn F. Children’s Fantasy Literature: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 274 p.

[7] Полянская Е. С. Фантастическое многомирие (на материале сопоставительного текстового анализа произведений Дж. К. Роулинг и А. М. Волкова): автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. – Тюмень, 2013. – 29 с.

S.G.Shafikov[8] esa ilmiy fantastikaning strukturaviy xususiyatlarini o‘rgangan. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan fantastik shartlilik, fantastik olam, janriy transformatsiya va real-irreal munosabati haqidagi nazariy qarashlar ushbu dissertatsiyaning fantastik asar tipologiyasini belgilashdagi metodologik tayanchlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish X.To‘xtaboyev ijodi va o‘zbek bolalar fantastikasining poetik xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar. U.Normatov[9] X.To‘xtaboyevning hayoti va ijodini adabiy portret doirasida tizimli o‘rgangan; A.Rasulov adib ijodining jahon bolalar adabiyoti bilan mushtarak va farqli jihatlariga e’tibor qaratgan[10]. X.Hasanova X.To‘xtaboyev asarlarida fentezi janridagi lingvomadaniy xususiyatlarining o‘xshash va differensial belgilarini, R.To‘laboyeva, J.A.Lutfullayevlar X.To‘xtaboyev romanlaridagi badiiy psixologizmni, F.Jo‘rayeva L.Tolstoy va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlaridagi tipologik obrazlarning qiyosiy tahlilini, U.Musayeva X.To‘xtaboyev romanlarining syujet va konflikt xususiyatlari masalalarini atroflicha ochib bergan[11]. Bu dissertatsiyalardan tashqari, N.Yarashova esa X.To‘xtaboyev romanlarining til va uslubiyati jihatlarini yoritilishiga e’tibor qaratgan[12]. M.Kurbanova X.To‘xtaboyev va Mark Tven romanlarini qiyosiy-tipologik tahlilini amalga oshirgan[13]. Mazkur izlanishlar X.To‘xtaboyev ijodida bolalar qahramoni, fantastik shartlilik, milliy xarakter, syujet va konflikt, folklor an’analarini yoritishda muhim ilmiy asos yaratgan. Biroq ularda “Sariq devni minib” asarining ingliz bolalar fentezisi bilan yaxlit tipologik model darajasidagi qiyosi asosiy tadqiqot predmeti sifatida qo‘yilmagan.

Uchinchi yo‘nalish J.K.Rouling ijodi, “Garri Potter” turkumi hamda X.To‘xtaboyev va J.K.Rouling asarlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga doir tadqiqotlar. J.K.Rouling ijodiga bag‘ishlangan izlanishlarda “Garri Potter” romanlarining fentezi poetikasi, arxetiplar tizimi, mifologik qatlamlari, lingvomadaniy birliklari, antroponimlari, tarjimasi va kitobxon tomonidan qabul qilinishi kabi masalalar yoritilgan.[14] Jumladan, T.V.Volkodav “Garri Potter” materiali asosida

---

[8] Шафиков С. Г. Философская фантастика Станислава Лема: монография.– Москва: ФЛИНТА, 2020. – 288 с.

[9] Норматов У. Саргузашт сардори: адабий портрет. – Тошкент: Адиб, 2012. – 112 б.

[10] Расулов А. Ғаройиб салтанат // Жаҳон адабиёти. – 2008. – № 6. Абдуғафур Расулов. Ғаройиб салтанат — ziyouz.uz

[11] Hasanova X.B. Ursula Le Guin va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida fentezi janrining lingvomadaniy qiyosi: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2025. – 54.; Тулабоева Р.С. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 161 б; Лутфуллаев Ж.А. ўзбек болалар адабиётининг тараққиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Жиззах, 2022.; Жўраева Ф.Ё. Типологик образларнинг қиёсий таҳлили (Л.Толстойнинг –Ҳожимурод‖ ва Худойберди Тўхтабоевнинг – Қасоскорнинг олтин боши‖ асари мисолида): Филол.фан.д ри ... дисс. – Тошкент, 2000; Мусаева У.Д. Худойберди Тўхтабоев романларининг сюжет ва конфликт хусусиятлари: Филол.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 1997;

[12] Ярашова Н.Ж. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 150 б.

[13] Kurbanova M. Xudoyberdi To‘xtaboyev va Mark Tven romanlarining qiyosiy tipologik tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024. – 120 b. https://diss.natlib.uz/tanishish/3b27bb5a-a190-5fb8-97ef-969273dd1705 (murojaat qilingan sana:13.07.2026)

[14] Васильева Н.И. Фольклорные архетипы в современной массовой литературе: романы Дж.К.Роулинг и их интерпретация в молодежной субкультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2005. – 24 с.; Левко Е.Н. Динамика волшебного мира Дж.К.Роулинг: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 24 с.; Ленти М. Джоан Роулинг. Неофициальная биография создательницы вселенной «Гарри Поттера» / М. Ленти; пер. с итал. А.М. Левшина. – Москва: Эксмо, 2021. – 320 с.; Yao Dai-yi, Chen Qian-qian. Heroic Archetype in Harry Potter Series // Journal of Literature and Art Studies, 2020. //

fentezi matnining struktur-tipologik va leksik-semantik parametrlarini [15], E.K.Timoshenko esa asarning kitobxon tomonidan qabul qilinish xususiyatlarini [16] tadqiq etgan. U.Umarovning tadqiqotida esa J.K.Roulingning "Harry Potter" va X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari xarakter va ramz arxetiplari aspektida bevosita qiyoslangan[17]. Shuningdek, A.Rajabov ikki asardagi magik va realistik hayot uyg'unligini, N.A.Saidova "Garri Potter"dagi fantastik obrazlarni, J.K.Solijonov[18] esa Rouling asarlarining lingvistik va tarjimaviy jihatlarini o'rgangan. R.To'laboyeva[19] bolalar adabiyotini keng o'rganishi pirovardida "Uchqur xayol mevalari" nomli maqolasida aynan ikki ijodkor: X.To'xtaboyev va J.Rouling asarlarini qiyosiy aspektda tahlil qilgan.

Mavjud tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda fantastikaning nazariy tabiati, X.To'xtaboyev va J.Rouling ijodining alohida poetik xususiyatlari, shuningdek, ikki adib asarlarining ayrim mushtarak jihatlari arxetip, obraz, magik va realistik qatlam, lingvomadaniy birliklar, tarjima va uslub masalalari muayyan darajada tadqiq etilgan. Biroq hozirgacha X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va J.Roulingning "Garri Potter va afsonaviy tosh" asarlari o'zbek va ingliz bolalar fantastikasining ikki milliy modeli sifatida fantastik tafakkur, janriy xususiyat, qahramon konsepsiyasi, syujet va konflikt, fantastik makon, kompozitsiya hamda individual uslub kabi o'zaro bog'liq poetik mezonlar tizimida yaxlit qiyosiy-tipologik aspektda maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Mazkur masalalar ushbu dissertatsiyaning tadqiqot yo'nalishini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Termiz davlat universitetining "Tilshunoslik, adabiyot, tarjimashunoslik va chet tillarining o'qitishga integratsiyalashuvi" ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek va ingliz bolalar adabiyotidagi fantastik asarlarning tipologik xususiyatlarini "Sariq devni minib" va "Garri Potter va afsonaviy tosh" asarlari misolida tadqiq etish va ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz bolalar fantastikasining shakllanish manbalari, taraqqiyot tamoyillari hamda tipologik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish;

X.To'xtaboyev va J.Rouling badiiy tafakkurining shakllanishida folklor, adabiy

---

https://davidpublisher.com/Public/uploads/Contribute/600e2e81ab80c.pdf.;Ramaswamy Sh. Archetypes in Fantasy Fiction: A Study of J. R. R. Tolkien and J.K. Rowling // Language in India, 14.1 (2014): x. Web. 24 Nov. 2014. // https://rrscholar.daltonstate.edu/bitstreams/ca848f7c-9432-41b2-b88c-3b67d90f3a7d/download

[15] Волкодав Т.В. Структурно-типологические и лексико-семантические параметры литературной сказки Дж.Роулинг и ресурсы их передачи на русский и немецкий языки: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2006. – 26 с.

[16] Тимошенко Е.К. Рецепция романов Дж.К.Роулинг о Гарри Поттере: опыт российского прочтения: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2018. – 24 с.

[17] Umarov U. XX asr ingliz va o'zbek bolalar adabiyotida xarakter va ramz arxetiplarining qo'llanilish usullari va badiiy tahlili (J.Roulingning "Harry Potter" va X.To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarlari talqinida): magistrlik diss. – Buxoro, 2025. – 145 b.

[18] Solijonov J. Fentezi matnlar tarjimasining lingvo-perspektiv tahlili (J.K.Rouling asarlari tarjimasi asosida): Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2026. – 48 b.

[19] To'laboyeva R. Uchqur xayol mevalari // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2011. – № 6. – B. 190–191.

an’analar va madaniy muhitning o‘rnini qiyosiy asosda yoritish;

“Sariq devni minib” va “Garri Potter va afsonaviy tosh” romanlarida qahramonlar konsepsiyasi, fantastik obrazlar tizimi va syujet qurilishining tipologik xususiyatlarini ochib berish va tasniflash;

obyekt sifatida tanlangan asarlarning qiyosiy-tipologik modelini ishlab chiqish hamda milliy va umumiy janriy belgilarini aniqlash; mazkur romanlarda ma’naviy kamolot, sinov-sarguzasht motivi hamda milliy-tarbiyaviy g‘oyalarning badiiy talqinini qiyosiy-komparativ tahlil qilish;

X.To‘xtaboyev va J.Rouling ijodida individual uslub, ko‘p qatlamli kompozitsiya va tilning badiiy-estetik imkoniyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek adabiyotidan X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” hamda ingliz adabiyotidan J.Roulingning “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlari olingan.

Tadqiqot predmeti. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va J.Rouling “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlarining tipologik xususiyatlari, obrazlar tizimi va poetikasi tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda qiyoslash, kuzatish, germenevtik, tipologik umumlashtirish va matn tahlili metodlaridan foydalanildi. X.To‘xtaboyev va J.Rouling asarlarini tahlil qilishda qiyosiy-tipologik, analitik, struktur metodlar qo‘llanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

X.To‘xtaboyev va J.Rouling badiiy tafakkurining shakllanishida folklor va adabiy an’analarning mushtarak, milliy madaniy muhitning esa farqlovchi omil ekanligi hamda uning fantastik tafakkur tabiatiga ta’siri dalillangan;

“Sariq devni minib” hamda “Garri Potter va afsonaviy tosh” romanlarining qiyosiy-tipologik tahlili asosida ma’naviy kamolot, sinov-sarguzasht syujeti va fantastik obrazlar tizimining mushtarakligi, parallel olam va milliy-tarbiyaviy yo‘nalishning ustuvorligi ochib berilgan;

X.To‘xtaboyev va J.Roulingning tadqiq etilgan asarlari qiyosiy-tipologik modellashtirilib, folklor-mifologik va sarguzasht mushtarakligi hamda fentezi-parallel olam, real-fantastik makon kabi farqli belgilar aniqlangan;

X.To‘xtaboyev va J.Rouling ijodida xalqona-yumoristik va mifopoetik uslub, ko‘p qatlamli kompozitsiya hamda tilning obraz yaratish imkoniyatlari individual uslubning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

– adabiy-madaniy globallashuv jarayonlari, adabiy aloqalar, adabiy ta’sir natijalarining ingliz va zamonaviy o‘zbek adabiyoti fantastika yo‘nalishida tutgan o‘rni ikki ijodkor asarlari misolida yoritib berilgan;

– fantastik asarlardagi detalning badiiy-estetik vazifalari aniqlanib, ikki ijodkorning fantastik asarlaridagi o‘xshash va farqli jihatlar ochib berilgan.

– o‘zbek va ingliz adabiyotida fantastikaning, fantastik asarlarning X.To‘xtaboyev va J.Roulingning ijodiy merosiga ta’siri va ularning roli tahlil qilingan;

– X.To‘xtaboyev va J.Rouling ijodining fantastika janrida qilgan yangiliklari yoritib berilgan, nazariy umumlashma va xulosalar chiqarilgan. Ikki adib ijodining milliy mohiyati, shakllanishi, takomili tahlilini o‘rganish asnosida yozuvchi ijodida milliy adabiyot an’analari hamda nasridagi o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning ishonchliligi, tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik tahlil usullari bilan asoslanganligi; ishonchli manbalarga tayanilgan holda chiqarilgani hamda umumlashma xulosalar nufuzli nazariy adabiyotlar asosida dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ishning natijalariga ko‘ra chiqarilgan nazariy xulosalar asosida qiyosiy-tipologik metod mohiyatini yoritish, nazariy umumlashmalar chiqarish; jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi materiallarini qiyoslash asosida yoritib berishning qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta’sir muammolariga doir monografik tadqiqotlar tayyorlash, o‘quv, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishdagi, o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotidagi asarlarning umumiy jihatlarini tahlil qilishdagi ahamiyati kabi masalalarni o‘rganishga nazariy asos bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ilmiy-nazariy xulosalari va ularning natijalaridan oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey va maktablarda adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, bolalar adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik fanlaridan o‘quv dasturi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ma’ruza matnlarini tayyorlashda, badiiy matn talqini bo‘yicha maxsus kurs hamda seminarlar o‘tishda, magistrlik dissertatsiyalari, kurs ishlari yozishda, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz bolalar fantastikasining tipologik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish metodologiyasini boyitadi hamda bolalar adabiyotiga oid nazariy qarashlarni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga ulardan qiyosiy adabiyotshunoslik va bolalar adabiyoti fanlarini o‘qitishda, hamda o‘zbek bolalar adabiyotini xalqaro ilmiy maydonda targ‘ib etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. O‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida “Sariq devni minib” hamda “Garri Potter va afsonaviy tosh” romanlarining tipologiyasini tadqiq etish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish asosida:

X.To‘xtaboyev va J.K.Rouling badiiy tafakkurining shakllanishida folklor va adabiy an’analarning mushtarak, milliy madaniy muhitning esa farqlovchi omil ekanligi hamda uning fantastik tafakkur tabiatiga ta’siriga oid xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. (№ 04/1-114 raqamli ma’lumotnomasi. 2026.01.08). Natijada o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik tafakkurning shakllanishiga ta’sir etuvchi folklor-adabiy an’analar hamda milliy-madaniy omillar haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar loyihaning mazmuniy asoslarini boyitgan.

“Sariq devni minib” hamda “Garri Potter va afsonaviy tosh” romanlarining qiyosiy-tipologik tahlili asosida ma’naviy kamolot, sinov-sarguzasht syujeti va

fantastik obrazlar tizimining mushtarakligi, parallel olam va milliy-tarbiyaviy yo‘nalishning ustuvorligi bo‘yicha xulosalardan 2023-2025-yillarda Germaniya akademik almashinuv xizmati DAAD tomonidan moliyalashtirilgan ID-57663348-raqamli “European Perspectives in Dialogue: Central Asia and Western Research – Muloqotda Yevropa istiqbollari: Markaziy Osiyo va G‘arb tadqiqotlari” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 09.06.2026. 06/4399-ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotining qiyosiy-tipologik xususiyatlari, fantastik tafakkurning milliy-madaniy asoslari hamda ma’naviy-tarbiyaviy yo‘nalishlari yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar kengaytirilib, Sharq va G‘arb bolalar adabiyoti o‘rtasidagi mushtaraklik va farqli jihatlarni yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar boyitilgan.

X.To‘xtaboyev va J.Roulingning tadqiq etilgan asarlari qiyosiy-tipologik modellashtirilib, folklor-mifologik va sarguzasht mushtarakligi hamda fentezi-parallel olam va ertak-qissa, real-fantastik makon kabi farqli belgilar aniqlanganligiga oid xulosalaridan Toshkent shahar “Mahalla” teleradiokanali “Bir asar tarixi” eshittirish mashg‘ulotlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” teleradiokanalining 28.01.2026. 35-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillar bilan boyitilib, ko‘rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ilmiy ma’ruza ko‘rinishida 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan, xorijiy jurnallarda 5 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya, uchta asosiy bob, jami 8 ta fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 144 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fantastika va uning milliy-adabiy shakllanish xususiyatlari**” deb nomlangan. Ilk fasl ***“Fantastikaning genezisi va muhim xususiyatlari”*** deb atalgan. Fantastika qadimiy mif, afsona va ertaklarga borib taqaluvchi badiiy-estetik hodisa. “Fantastika” atamasining qadimgi falsafiy

qo‘llanilishi Platonning “Sofist” dialogida uchraydi.[20] Hozirgi kunda fantastika tushunchasining yagona, umumqabul qilingan nazariy-adabiy ta’rifi mavjud emas. “Fantastika” to‘g‘risida, uning shakllanishi, genezisi hamda adabiyotning bu turi jamiyat ongi va tafakkuriga qanday ta’sir o‘tkazishi haqidagi ilk ilmiy qarashlar fransuz adabiy tanqidchisi Sharl Nodening “Adabiyotdagi fantastika haqida” (1830)[21] nomli maqolasida uchraydi. Dunyo adabiyotshunosligida fantastika muammosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida shakllandi.

Fantastikaning kelib chiqishi afsonalardan keyin sehrli ertaklarda ko‘rinadi. Ilmiy fantastika esa badiiy ijodning alohida turi sifatida ajralib turadi. Hozirgi zamon adabiyotida esa mif ham, ertak ham o‘z rivojini fantastik yo‘nalishda davom ettirmoqda[22].

Ayrim adabiyotshunoslar fantastikani mustaqil adabiy janr sifatida ko‘radi. E.Brandis fantastikani “shartli shakldagi janr” sifatida baholasa[23], K.Bulychev uni “badiiy adabiyotning barcha janr va turlarini qamrab oluvchi ijod turi” sifatida ko‘rsatadi. Olimlar qarashlaridan kelib chiqib, fantastika tadqiqotda faqat mustaqil janr emas, balki turli adabiy tur va janrlarda namoyon bo‘lib, badiiy tafakkur hamda estetik imkoniyatlarni kengaytiruvchi hodisa sifatida talqin etiladi. Fantastikaning asosiy belgisi voqelikning odatiy qonunlariga bo‘ysunmaydigan obrazlar, hodisalar va makon-zamon tasvirlarining mavjudligidadir. Fantastikaning yirik tadqiqotchilaridan biri Fara Mendleson Mayk Levi bilan birgalikda “Bolalar fantastik adabiyoti: kirish”[24] kitobini yozgan. Ularning ta’kidlashicha, dastlab ertaklar bolalar uchun mo‘ljallanmagan, chunki kattalar ularning “tasavvuri g‘ayritabiiylikdan zarar ko‘radi” deb hisoblagan.

Vladimir Propp [25] G‘arb nazariyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, fantastik tafakkurning ildizlarini mif va ertak strukturasi bilan bog‘ladi.

Fantastik tafakkurning eng qadimiy manbalari hamda folklor-mifologik ildizlari bu – mif, afsona, rivoyat va xalq ertaklaridir. M.Eliade[26] fantastik matnlarni mifologik tafakkurning zamonaviy adabiyotdagi davomchisi deb baholaydi. Tzvetan Todorov[27] fantastikani mifdan ajratadi, biroq uning ildizlari mifologik dunyoqarashga borib taqalishini inkor etmaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fantastika – mifning badiiy evolyutsiyasidir.

Fantastika – badiiy tafakkurning universal mexanizmidir. Fantastika real va norealni qo‘shadi, sabab va oqibatni ramziy shaklda qayta quradi, borliqni to‘g‘ridan-

---

[20] https://bigenc.ru/wiki/«Софист»_(диалог_Платона) (дата обращения: 22.09.2025)

[21]Nodier Ch. Il fantastico in letteratura (Du fantastique en littérature) // Wikipedia. – Elektron resurs. – Murojaat rejimi: https://it.wikisource.org/wiki/Racconti_fantastici_(Nodier)/Del_fantastico_in_letteratura (murojaat sanasi: 21.06.2026).

[22] Tolkien J. R. R. On Fairy-Stories. – London: HarperCollins, 2001. – P. 9–74. https://omiliya.org/article/o-volshebnykh-skazkakh-dzhon-ronald-ruel-tolkien.html (accessed: 21.06.2025).

[23] Брандис Е.В. Научная фантастика и человек в сегодняшнем мире // Вопросы литературы. – 1977. – № 6. – С. 103.

[24] Levy M., Mendlesohn F. Children’s Fantasy Literature: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 274 p

[25] Пропп В.Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – 151 с. – (Вопросы поэтики. Вып. XII)

[26] Eliade M. Myth and Reality / trans. from French by W.R. Trask. – New York: Harper & Row, 1963. – 204 p. – (World Perspectives, Vol. 31). – Electronic resource. – URL: https://archive.org/stream/eliade-mircea-myth-and-reality-harper-row-1963/Eliade%2C%20Mircea%20djvu.txt (accessed: 21.06.2026).

[27]Todorov T. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre / Trans. from French by R. Howard. – Cleveland; London: The Press of Case Western Reserve University, 1973. – p. 93

to‘g‘ri emas, metafora orqali anglatadi. Fantastik tafakkur sabab, asar esa natijadir. Nazariy jihatdan fantastik tafakkur psixik-intellektual jarayon, fantastik asar esa ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Fantastik tafakkur bo‘lmasa g‘ayritabiiy obrazlar, noodatiy syujetlar, alternativ makon va zamon yaratilmaydi. Shu ma’noda, fantastik asar – tafakkur natijasining matn shakliga ko‘chirilishidir. Milliy adabiyotlar kontekstida fantastika xalq og‘zaki ijodi, mifologiya va madaniy an’analar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi.

Bobning 2-fasli ***“O‘zbek va ingliz bolalar fantastikasining shakllanish tamoyillari hamda ularning tipologik xususiyatlari”*** deb nomlanadi. O‘zbek adabiyotida fantastika o‘ziga xos boy tarixga va milliy xususiyatlarga ega. O‘zbek bolalar fantastik adabiyoti XX asrda milliy bolalar adabiyotini shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi sifatida vujudga keldi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik yodgorligi bo‘lgan “Alpomish”[28] dostoni mifologik tafakkur va fantastik tasavvurlar uyg‘unlashgan asardir. O‘zbek xalq ertaklarida devlar g‘ayritabiiy, ulkan kuch-qudratga ega mavjudotlar sifatida namoyon bo‘ladi hamda zamonaviy sarguzasht-fantastik adabiyotning ilk milliy prototiplaridan biri sifatida qaraladi. Ertakchilik an’anasi fantastik nasrning poydevorini yaratdi.

XX asrda bu yo‘nalish mustaqil shaklga ega bo‘lib, X. To‘xtaboyev, Tohir Malik, H. Shayxov, Sh. Sadulla, S.Quronov singari yozuvchilar ijodida o‘z ifodasini topdi. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” kabi asarlari sarguzasht fantastikasi uchun xos bo‘lsa, H.Shayxovning “Rene jumbog‘i”, “7-SER” kabi asarlari ilmiy fantastika yo‘nalishining yorqin namunalaridir.

O‘zbek adabiyotida fantastika masalalari bolalar adabiyoti, badiiy tasavvur va obraz poetikasi doirasida o‘rganilgan. Bu borada O.Sharafiddinov, P.Shermuhammedov, U.Normatov, R.Ibrohimovalarning[29] bolalar adabiyoti va badiiy tafakkurga oid tadqiqotlari muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Ingliz adabiyotida fantastika shakllanishida qadimgi miflar, xalq ertaklari, afsonalar, diniy rivoyatlar, ritsarlik romanlari hamda folklor an’analari muhim manba vazifasini bajargan. Ingliz mifologiyasidagi Qirol Artur haqidagi afsonalarda toshga qadalgan qilichni faqat “tanlangan shaxs” sug‘urib olish qobiliyatiga ega. Bu motiv mifologik tafakkurga xos muqaddas tanlov (sacred election)[30] g‘oyasini ifodalaydi. X.Darton ingliz bolalar adabiyoti tarixiga oid quyidagilarni yozadi: “Umuman olganda, XVII asrgacha Angliyada bolalar kitoblari mavjud emas edi, XVII asrda esa faqat ayrim shunday kitoblar uchraydi”[31].

G‘arb adabiyotshunoslari ingliz bolalar adabiyotidagi muhim bosqich “Viktorian davri bolalar adabiyoti” [32] ni ta’kidlab o‘tishadi. Viktorian bolalar

---

[28]Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 397 б.

[29]Шарафиддинов О. Қалдирғочлардан бири // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995. – 21 апрель. – № 16 (3303). – Б. 3.; Шарафиддинов О. Ҳожиакбарнинг сирли олами: Сўзбоши // Шайхов Ҳ. Туташ оламлар; Икки жаҳон овораси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 3-4.; Шермуҳаммедов П. Давр қаҳрамон тақдирида: Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – Б. 225.; Норматов У. Саргузашт сардори: адабий портрет – Тошкент: Адиб, 2012. — 112 б.; Ибрагимова Р. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе: монография. – Ташкент: Фан, 1987. – 92 с.

[30] “The chosen one” tushunchasi – qahramon bashorat orqali tanlanadi.

[31] Darton, Harvey. Children’s Books in England: Five Centuries of Social Life. Cambridge University Press, 2011. – 216 p.

[32] https://ru.wikipedia.org/wiki/Викторианская_литература (дата обращения: 21.06.2026).

adabiyotida madaniyat ikki bo‘g‘inga ajralib ya’ni qizlar uchun maxsus adabiyotlar hamda yigitlar uchun maxsus badiiy asarlar yozilishida ifodalangan. Qiz bolalar uchun mo‘ljallangan asarlarda ko‘proq uy yumushlari va oilaviy bayramlar bilan bog‘liq mavzular yoritilgan bo‘lsa, o‘g‘il bolalarga mo‘ljallangan asarlarda sarguzasht va sayohat motivlari ustuvorlik qiladi. Bunga Lyuis Kerrollning “Alisa mo‘jizalar mamlakatida”, Robert Maykl Ballantynening “Koral oroli. Tinch okean haqidagi rivoyat” asarlarini misol sifatida keltirish mumkin.

XIX asrning o‘rtalariga kelib, bolalar adabiyoti ham janrlar, ham mavzular jihatidan o‘zgarishga uchradi. A.T.Ackerman Viktoriya davri bolalar adabiyotini mazmun-mohiyatini tahlil qilib[33], bu davr bolalar adabiyotini quyidagi toifalarga bo‘ladi: 1. Diniy va axloqiy adabiyot; 2. Sarguzasht va imperialistik adabiyot; 3. Ijtimoiy-didaktik va realistik adabiyot.

Zamonaviy fantastikaning yirik tadqiqotchi J.R.R.Tolkienning “On Fairy-Stories” (1939)[34] ilmiy essesi fantastikani ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyatga ega. Shu davrda J.R.R.Tolkien bolalar adabiyotiga zamonaviy fantastikani o‘zining “Habbit” sarguzasht-fantastika asari orqali olib kirdi. Ammo 1980-yillarning oxiriga kelib, bolalar adabiyoti fantastikasining qisqa muddatli so‘nishiga sabab bo‘ladi. Bu davrda yozuvchilar ko‘proq “ijtimoiy realizm”ga yuz tutadilar. Ammo 1990-yillarda J.K.Roulingning “Garri Potter” romanlar turkumi tufayli fantastik adabiyot yana jonlanadi.

Bobning uchinchi fasli ***“Sariq devni minib” va “Garri Potter va afsonaviy tosh”asarlarida tipologik mushtaraklik va milliy o‘ziga xoslik***

Ishda o‘zbek va ingliz fantastikasida mushtaraklik va o‘ziga xoslik tadqiq etildi. Fantastik asarlar juda rang-barang bo‘lgani uchun ularni bitta mezon asosida tasniflash yetarli emas. Shu sababli “Sariq devni minib” va “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlari bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta mezonlar asosida tasniflandi. *1. Syujet modeli asosida tipologiya.* 2. *Obraz tizimi asosida tipologiya.* 3. *Makon va xronotop asosida tipologiya.* 4. *Mo‘jizaning vazifasi asosida tipologiya.*

Mo‘jiza fantastik asarning markaziy komponenti. U turli vazifalarni bajaradi: a) syujetni harakatga keltiradi va qahramonga imkon beradi; b) sinov, axloqiy tekshiruv, ichki o‘sish mexanizmi; c)maqsad ya’ni qidiruv obyekti syujet markazi.

O‘zbek va ingliz bolalar adabiyotining *nazariy asoslarini* tahlil qilganda ulardagi o‘xshash jihatlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: *1.Ma’rifiy va tarbiyaviy vazifa. 2.Xalq og‘zaki ijodiga tayanish. 3.Didaktik ruh. 4.Bosqichma-bosqich taraqqiyot.* Farqli jihatlari esa quyidagilar: *1.Shakllanish davri; 2.Madaniy asos*. *3.Siyosiy-ideologik bosim. 4.Janrlarning rivojlanishi*. *5.Badiiy erkinlik.*


Fantastik asarlarning qiyosiy-tipologik modelini belgilashda model tushunchasi faqat ikki adabiy hodisaning o‘xshash va farqli belgilarini qayd etish vosita sifatida emas, muayyan poetik tizimning barqaror va o‘zgaruvchan komponentlari o‘rtasidagi munosabatni ifodalovchi nazariy konstruksiya sifatida tushuniladi. Shu jihatdan

[33] Ackerman, Ann Trugman. Victorian Ideology and British Children’s Literature, 1850-1914. PhD diss., Denton, Texas, 1984. 377 p.

[34]Tolkien J. R. R. On Fairy-Stories. – London: HarperCollins, 2001. – P. 9–74. https://omiliya.org/article/o-volshebnykh-skazkakh-dzhon-ronald-ruel-tolkien.html (accessed: 21.06.2025).

tadqiqotda taklif etilayotgan model X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va J.K.Roulingning “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlarida fantastik poetikaning shakllanishi va amal qilishini bir xil mezonlar asosida qiyoslashga xizmat qiladi.

“Garri Potter va afsonaviy tosh” va “Sariq devni minib” asarlarining tipologik modeli shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz bolalar adabiyotida fantastik asarlarning shakllanishi turli tarixiy-madaniy sharoitlarda kechgan bo‘lsa-da, ularning genezisi xalq og‘zaki ijodi, mifologik tasavvurlar va ertakchilik an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Har ikki adabiyotda fantastika bolalar tasavvurini boyitish, axloqiy-estetik qarashlarini shakllantirish hamda badiiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim adabiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. **Bolalar fantastikasining o‘zbek va ingliz modellari: makon, qahramon tipi va konflikt bo‘yicha qiyosi**

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Sariq devni minib” va “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tarkib topgan. Birinchi fasl ***“Ijodkor dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy va estetik omillar”*** deb nomlangan bo‘lib, har qanday badiiy asarda muayyan darajada yozuvchining biografiyasi aks etishi tabiiydir. X.To‘xtaboyev

asarlarini tahlil qilar ekanmiz, ularda, eng avvalo, yozuvchining hayot yo‘li hamda xarakteri tabiati namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. X.To‘xtaboyev ijodining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan *shaxsiy tajriba va biografik omillar*dan biri bolalik chog‘ida buvisidan tinglagan ertaklari bo‘lib, ular yozuvchining tasavvur olamini boyitib, ijodiy ruhining shakllanishiga zamin yaratgan. *Ijtimoiy va kasbiy omillar* nuqtayi nazaridan esa, yozuvchining ijodiy faoliyati davomida 300 dan ortiq felyeton yozgani jamiyatdagi illatlar, jinoyatlar va qonunbuzarliklarni yaqindan kuzatish, ularni tahlil qilish hamda tegishli xulosalar chiqarishiga imkon bergan. *Adabiy ta’sir va badiiy an’ana omillari* X.To‘xtaboyev ijodida quyidagilarda ko‘rinadi. Yozuvchi realizm metodi keng yoyilgan davrda ijod qilgani sababli uning asarlarida real hayot, hayotiy dalillar va mantiqiy tahlil ustuvorlik qiladi. Rodari va Svift ijodidan ilhomlanganligi esa, asarlaridagi sarguzasht, sayohat va hazil-mutoyiba elementlarining kuchayishiga ta’sir ko‘rsatgan. X.To‘xtaboyev ijodida *jamiyat va tarixiy muhit ta’siri* ham bevosita seziladi. Adib dunyoqarashi shaxsiy tajriba, kasbiy faoliyat, adabiy ta’sirlar, ichki ruhiy sifatlar va jamiyatdagi ijtimoiy muhit uyg‘unligida shakllangan. Shu omillar uning ijodiy uslubini ham, asarlaridagi mazmun va g‘oyalarni ham belgilab bergan. Ingliz adibasi J.K.Rouling[35]ning biografiyasi har bir asari yaratilishida bevosita ta’siri seziladi. J.Roulingning *oilaviy sharoiti va bolalik kechinmalari* uning yozuvchi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgan. Onasining vafoti, otasi bilan murakkab munosabatlari va singlisiga ertaklar to‘qib berishi ijodida yetimlik, mehrsizlik va oilaviy qo‘llab-quvvatlash motivlarini yuzaga keltirgan. *Ta’lim va adabiy muhitda,* J.Roulingning maktabdagi ingliz tili va adabiyoti o‘qituvchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi uning ijodiy salohiyatini erta yuzaga chiqardi. J.Rouling shaxsiy *hayotidagi sinovlar va psixologik kechinmalar* uning asarlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ilk muhabbatda omadsizlik, oilaviy nizolar, turmushdagi zo‘ravonlik va moddiy qiyinchiliklar yozuvchining ruhiy dunyosiga keskin ta’sir ko‘rsatdi. Yozuvchining yoshligidan ertaklar to‘qishga qiziqish juda kuchli edi. J.Rouling hayotiy kechinmalarini fantastik voqelik bilan uyg‘unlashtira oldi va shu yo‘l bilan butun dunyo adabiyoti uchun noyob sehrli-realistik olam yaratdi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida ***“Obrazlar tizimi va xarakter yaratish tamoyillari” tadqiq etilgan.*** Badiiylikning eng yuksak darajasi obrazlarda ko‘rinadi. Ishda “Garri Potter va afsonaviy tosh”dagi qahramonlar badiiy xarakteri batafsil tahlil qilingan. Asarning dastlabki boblaridanoq Garri Potter obrazi o‘quvchini sehrli olamga faol tarzda jalb etadi va bu olamga nisbatan befarq bo‘lib qolish imkonini bermaydi[36]. Garri Potter obrazi buyuk kuch egasi sifatida ko‘rsatiladi.

Asardagi do‘stlik mavzusi – Garri, Ron va Germionaning o‘zaro do‘stligi butun asar davomida asosiy kuch sifatida xizmat qiladi. Germiona Roulingning o‘zini aks ettiruvchi personaj hisoblanadi. Ron Uizli turkumda Garri Potterning eng yaqin do‘sti sifatida sadoqat va do‘stlik timsoli bo‘lib namoyon bo‘ladi.[37]. Salbiy personaj sifatida Lord Voldemortni ko‘rsatishimiz mumkin. Malfoy esa ko‘p qirrali qahramon sifatida gavdalanadi. Ishda Drako Malfoy obrazi “Garri Potter va afsonaviy tosh” romanida

[35] https://www.rbc.ru/person/6707cce99a794728fbf1cf6b (murojaat sanasi: 21.06.2026)
[36]Rowling J. K. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. – London : Bloomsbury Publishing Plc, 2004. – P. 42.
[37]Rowling J. K. Harry Potter and the Philosopher’s Stone. – London : Bloomsbury Publishing Plc, 2004. – P. 205.

antagonistik xarakterga ega bo‘lgan, ijtimoiy va axloqiy qarama-qarshiliklarni ifodalovchi muhim badiiy timsollardan biri sifatida namoyon bo‘lishi ochib berilgan.[38].

“Sariq devni minib” romanida har bir kasbning tagida mashaqqatli mehnat, ilm, sabr yotishini yosh o‘quvchilarga Hoshimjon timsolida ko‘rsatganligi misollar asosida ishda batafsil yoritilgan. X.To‘xtaboyev ijodida yaratilgan badiiy obrazlar va xarakterlar o‘zining hayotiyligi, tabiiyligi va chuqur ma’naviy mazmuni bilan ajralib turadi. Hoshimjon, Soraxon folbin, Danak qori, Bodom qori, Yong‘oq qori kabi personajlar orqali yozuvchi nafaqat kulgi, balki o‘ylantiruvchi, tarbiyaviy ahamiyatga ega voqealarni jonli tasvirlaydi. X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”da xalq ertaklari elementlari bilan birga hayotiy, real bolalar obrazlari tasvirlansa, J.Roulingning mashhur “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarida qahramonlar afsonaviy va real tasavvurlarni uyg‘unlashtirgan.

2.2.1-jadval.

“Sariq devni minib” hamda “Garri Potter va afsonaviy tosh” asarlaridagi obrazlar tipologiyasini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T/r	**Mezonlar**	**Hoshimjon**	**Garri Potter**
1.	*Qahramonlarning yoshi va ijtimoiy holati*	O‘smirlik ostonasidagi bola (6-sinf o‘quvchisi), qishloq muhitida, oddiy oilada o‘sgan, sho‘x va xayolparast	O‘smirlik ostonasidagi bola (“secondary school” [39] bosqichiga o‘tgan) xolasi oilasida tarbiyalangan, yetim va yakka-yolg‘iz
2.	*Maktab va ta’lim muhiti*	Real hayotiy maktablar (qishloq maktabi, Mirzacho‘l maktabi) – bilim olishdan ko‘ra, mas’uliyatdan qochish	Fantastik maktab (“Hogwarts” afsungarlik va sehrgarlik maktabi) – bilim, sehr va sarguzashtlar jamlangan asosiy maskan.
3.	*Ustoz va direktor obrazi*	Otajon Azizov – Hoshimjonga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga urinadigan, sabrli va qattiqqo‘l, ammo mehribon real hayotiy ustoz	Albus Dambldor – donishmand, mehribon va qudratli afsungar, Garrining ma’naviy himoyachisi.
4.	*Do‘stlar va hamrohlar*	Zokir, Orif, Mirobiddinxo‘ja	Ron, Germiona
5.	*Yovuzlik va dushman konsepti*	Ichki yovuzlik va nafs: sariq dev(nafs)ning hamda qorilarning ustidan g‘alabasi)	Yovuz kuchlar Voldemort kabilarning ustidan Garrining g‘alabasi
6.	*Sehrli atribut(vosita)*	sehrli qalpoqcha	sehrli tayoqcha

Ishning uchinchi bobi **“Sariq devni minib” va “Garri potter va afsonaviy tosh” asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat. Uning birinchi faslida ***“Individual uslub va badiiy mahorat masalalari”*** tadqiq etilgan. Ijodkorning uslubi – uning ichki olami, shaxsiy kechinmalari, estetik qarashlari badiiy ifoda vositalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Har ikki ijodkor turli jihatdan tahlil qilinganda, ularning badiiy mahorati va uslublarida sezilarli farqlar mavjudligi oydinlashdi. X.To‘xtaboyev bolalik soddaligi, samimiyligi va o‘ziga xos yumorni badiiy vosita sifatida ishlatadi. Kulgili vaziyatlardan yetarlicha foydalanish, salbiy

[38] Fenske C. Muggles, Monsters and Magicians: A Literary Analysis of the Harry Potter Series. – Frankfurt am Main: Peter Lang Publishing, 2008. – P. 152.

